

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудир;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудир;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудир.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT
SIYOSATI 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА
ТУТГАН ЎРНИ 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжонова*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА 48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 56-60
- Utkirov Abbos Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-67
- Umronov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадинович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО
ТУРИЗМА 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 92-100

Гойипназаров Санжар Баходирович
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ120-126

Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI161-167

Мухамедова Феруза Баходир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА.....168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARINING QO'LLANILISHI181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЪМУН-МОҲИЯТИ191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
.....219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ233-237
- Aziz Hasanovich Rajabiy*
BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH238-242
- Malikova Sevar Samatovna*
BO'LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ247-251
- Хојитуродова Маһлиёхон Кенжавоу қизи, Иномов Фахриддин О'рмонjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES252-257
- Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL I266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

07.00.00-Тарих фанлари

Bobodustov Bobur Mirzaboyevich,
Tayanch-doktorant, Samarqand davlat universiteti

**ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zarafshon vohasining sug'orish tizimida muhim o'rin tutgan Zarafshon daryosida suv taqsimlash uchun barpo qilingan to'g'onlar, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi hududidan ajratib olingan qismidagi irrigatsiya tizimlarining holati, mavsumiy xarakterdagi bu suv inshootlarini rus ma'murlari tomonidan qayta qurish va ta'mirlashga bo'lgan e'tibor arxiv hujjatlari va mavzuga tegishli adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Zarafshon vohasi, Oqdaryo-Qaradaryo, Samarqand, Cho'ponota, irrigatsiya tizimi, to'g'on, suv ayirg'ich, hashar, sarjin, mavsumiy.

Bobodustov Bobur Mirzaboevich,
Base-doctoral student
Samarkand State University

**THE ATTITUDE OF THE ADMINISTRATION OF THE RUSSIAN EMPIRE TO THE
REPAIR OF WATER DIVERSION SYSTEMS ON THE ZARAFSHAN RIVER**

Abstract. This article discusses the dams built for water distribution on the Zarafshan River, which played an important role in the irrigation system of the Zeravshan oasis, the state of irrigation systems in their part, separated from the territory of the Bukhara Emirate of the Russian Empire, the reconstruction and repair of these seasonal water structures by the Russian authorities. Attention is analyzed based on archival documents and relevant literature.

Key words: Zeravshan oasis, Akhdarya-Karadarya, Samarkand, Chophonota, irrigation system, dam, water separator, sargin, seasonal.

Бободустов Бобур Мирзабоевич,
базовый-докторант
Самаркандский государственный университет

**ОТНОШЕНИЕ АДМИНИСТРАЦИИ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ К РЕМОНТУ
ВОДООТВОДНЫХ СИСТЕМ НА РЕКЕ ЗАРАФШАН**

Аннотация. В данной статье рассмотрены плотины, сооруженные для вод распределения на реке Заравшан, сыгравшие важную роль в оросительной системе Зеравшанского оазиса, состояние

оросительных систем в части их, отделенной от территории Бухарского эмирата Российской империя, реконструкция и ремонт этих сезонных водных сооружений российскими властями. Внимание проанализировано на основе архивных документов и соответствующей литературы.

Ключевые слова: Зеравшанский оазис, Ахдарья-Карадарья, Самарканд, Чопонота, оросительная система, плотина, водоотделитель, субботник, саргин, сезонный.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N06>

Zarafshon vohasining yuqori qismi Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olinganidan so'ng, Cho'ponota va Narpay to'g'onlarini tiklash ishi eski tartibda qoldiriladi. Shu vaqtdan boshlab bu inshootlarga sarf bo'ladigan mablag' va ishchi kuchi Buxoro amirligi va Zarafshon okrugi o'rtasida mazkur hududlarda Qoradaryodan sug'oriladigan yer maydonining umumiy hajmiga qarab sarflanadigan mehnat va mablag'ni barobar taqsim qilish joriy etiladi [1]. Bu davrda Qoradaryodan sug'oriladigan yer maydonining umumiy hajmi o'rtacha hisobda Ziyovuddin bekligida 2000 qo'shga, Kattaqo'rg'on bo'limida 1200 qo'shga va Samarqand bo'limida 800 qo'shga teng bo'lgan. Sug'oriladigan yer maydonining hajmiga qarab mazkur inshootlarga har yili sarf bo'ladigan xarajatlarning 0,5 qismini Ziyoviddin bekligi, 0,3 qismini Kattaqo'rg'on va 0,2 qismini Samarqand bo'limi ko'targan [2]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu vaqtda to'g'onlar uchun ishlatiladigan qurilish materiallarini sotib olish va ularni tashib keltirish uchun sarf bo'ladigan mablag'ni Ziyoviddin bekligi va inshootlarni tiklash uchun kerakli miqdordagi ishchi kuchini Kattaqo'rg'on va Samarqand bo'limlari bergan.

Biroq, bu inshootlarni tiklash mavsumiy xarakterga ega bo'lishi, bir tarafdin, yil sayin yuqorida aytib o'tilganidek katta mablag' va ko'p mehnat talab etsa, ikkinchidan Ziyovuddin bekligini ham va Kattaqo'rg'on bo'limini ham muntazam ravishda suv bilan ta'minlay olmagan. Zarafshon daryosida qurilgan to'g'onlar toshqinlar davrida suvning kuchiga bardosh bera olmay mavsumda bir necha bor buzilib ketgan. Natijada dehqonchilik uchun suv zarur bo'lgan paytda irrigatsiya tizimlari suvsiz qolib, dala ishlari qizg'in ketayotgan bir vaqtda dehqonlar to'g'onda tiklash uchun qayta-qayta hashar qilishga majbur bo'lgan. Shubhasiz bunday ahvol Qoradaryodan sug'oriladigan tumanlar dehqonchiligiga katta zarar keltirgan. Shuning uchun ham bu inshootlar ayniqsa, Cho'ponota to'g'onini tiklash masalasi ko'p o'tmay mahalliy irrigatsiya tizimi bilan endigina tanishib kelayotgan rus irrigatorlarining diqqatini o'ziga jalb etgan. Ular bu inshootlar o'rniga mustahkam to'g'on qurish va sarf bo'ladigan har yilgi katta xarajatlarni birmuncha qisqartirish yo'lini qidira boshlaganlar. Shu maqsadda 1871 yilda Samarqand harbiy okrugi tomonidan maxsus komissiya tashkil etilib, unga Zarafshonning Oqdaryo va Qoradaryolarga ajralgan qismida daryo oqimini o'rganib, Cho'ponotadagi mavsumiy to'g'on o'rniga mustahkam suv ayirg'ich inshooti qurish masalasini aniqlash topshiriladi [3].

Biroq, komissiya quyidagi sabablarga ko'ra, bu masalani amalga oshirish mumkin emasligini aniqlaydi: Birinchidan, agarda doimiy to'g'on qurilsa, daryoning oqizindi jinlari uning oldiga to'planib, daryo o'zanining o'ng tomonga siljishiga olib keladi. Natijada ko'p o'tmay Zarafshon o'ziga yangi o'zan ochib to'g'on chetda qolishi mumkin edi. Bunga qarshi to'g'ondan tashqari uning ma'lum joyiga suv tashlag'ich inshootlari qurish bilan birga, Zarafshonning o'z yo'nalishida harakat qilishga majbur etish uchun uning qirg'oqlarini bir necha kilometr masofada mustahkamlashga va birmuncha ko'tarishga to'g'ri keladi. Ikkinchidan, agarda

bunday tadbir amalga oshiriladigan bo'lsa, daryo o'zani chuqurlashib uning kechuvlaridan mutlaqo o'tib bo'lmaydigan bo'lib qolar edi. Bu esa mamlakatning aloqa ishlarini to'xtab qolishiga olib kelardi. Sababi Cho'ponota yaqinida daryo ikkiga ajraladigan joydan mamlakatning asosiy savdo va pochta yo'llari kesib o'tgan edi. Buning uchun Zarafshon daryosi ustiga mustahkam ko'prik qurish kerak edi. Bunday kapital qurilish, birinchidan, ko'p miqdorda qurilish materiallarini, ikkinchidan, katta mablag'ni talab etar edi. Vohada endigina tashkil topgan Samarqanddagi rus ma'muriyati bunday ishni amalga oshirish uchun hali ojiz edi. Uchinchidan, vohada yetarli darajada yog'och va boshqa qurilish materiallari bo'lmaganligi tufayli darvozalik to'g'onni qurish ham mumkin emas edi [4].

Bundan tashqari, Cho'ponota to'g'onini qayta qurish masalasi yana boshqa sabab bilan ham bog'liq edi. Ma'lumki har yili bu inshootni tuzatish yoki qayta tiklash ishlari Ziyoviddin begi ixtiyorida bo'lib, bu ish uning uchun yaxshigina daromad manbai hisoblangan. To'g'onni tiklash uchun Ziyovuddin bekligidan to'plangan mablag'ni sarflashda bek shaxsiy foydasini ko'zlab, pulni bir qismini o'z ixtiyorida olib qolgan. Buning ustiga, inshootning ko'pincha o'z vaqtida tuzatilmaligi yoki ta'mirlash ishlari shoshilinch olib borilishi natijasida to'g'onning beband bo'lib qolishi daryo toshqinlari davrida uni bir necha bor oqim olib ketishiga sabab bo'lardi. Oqibatda Qoradaryo vohasi butunlay suvsiz qolib, Cho'ponota to'g'onini tiklashdagi asosiy og'irlik shubhasiz hasharchilar yetkazib beruvchi Zarafshon okrugi aholisining zimmasiga tushgan [5]. Misol uchun, inshoot o'z vaqtida ta'mirlanmaganligi sababli 1873 va 1875-yillarda daryo toshqini uni asosiga qadar oqizib ketgan. To'g'on tiklangunicha Qoradaryo vohasi shu jumladan, Kattaqo'rg'on shahri butunlay suvsiz qolgan. Uni tiklash uchun 1873-yilda 23 kun, 1875-yilda esa 34 kun davomida minglab ishchilar mehnat qilgan [6].

Qoradaryo vohasida dehqonchilik uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan bu sug'orish inshootini tiklash maqsadida Samarqand okrugi ma'muriyati Ziyovuddin begini bu ishdan chetlatish chorasini izlagan. Shu sababli 187-yilda Cho'ponota to'g'onini tuzatish uchun Ziyovuddin bekligidan bu ishga mas'ul bo'lgan Xonqulibek va Bobobek qorovulbegilarning kelishiga qaramasdan, bu ishni Zarafshon okrugining irrigatsiya mudiri Z.Jijemiskiy boshqaradi. To'g'on besh kun ichida tuzatiladi. Uni tuzatishda 108 nafar hasharchi va 60 ta aravadan foydalanilgan. Ammo, ko'p o'tmay daryo toshqini to'g'onning 134 metr uzunlikdagi qismini o'pirib ketadi. To'g'onning o'pirilgan qismi 280 nafar hasharchi va 13 ta arava yordamida 12 kunda qaytadan bog'lanadi [7].

Agarda 1876-yilda Cho'ponota to'g'oni uchun 16534 rubl 40 tiyin xarajat qilingan bo'lsa [8], 1877-yilda uni tuzatish uchun hammasi bo'lib 3900 ishchi kuni hamda shox, yog'och sotib olish uchun va aravalarni kira qilish uchun faqat 374 rubl 60 tiyin sarf qilingan [9]. Shunday qilib, Cho'ponota to'g'onining bevosita rus irrigatorlari nazorati ostida tuzatilishi bilan 1877-yilgi xarajat avvalgi yillarga nisbatan birmuncha qisqargan edi. Bu ish Cho'ponota to'g'onini ta'mirlash ishlaridan Ziyovuddin begini butunlay chetlatish va uni Samarqand okrugi ma'muriyati nazoratiga olish uchun asos bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanning buyrug'iga binoan rus irrigator-muhandisi Z.Jijemskiy 1877-yilda Cho'ponota suv ayirg'ichini qayta qurishni loyihalashtiradi. Z.Jijemskiy 1878-yil 30 noyabrda va 1879-yil 22 fevralda K.P. fon Kaufmanga yozgan maxsus ma'ruzalarida Cho'ponota inshootini qayta qurush orqali quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilganligini bayon qilgan: 1) Cho'ponota to'g'onini imkon qadar daryo toshqinlari boshlanmasdan tuzatish; 2) Cho'ponotaning shox-shabbalardan qurilgan mavsumiy to'g'oni

o'rniga mustahkam ko'rband o'rnatish; 3) inshootni tuzatish vazifasidan Ziyovuddin begini chetlatish. "To'g'onni tiklash uchun, - deb yozadi Z.Jijemskiy, - odatda Zarafshonga suv kela boshlagan paytda kirishiladi, uni amalga oshirish esa daryoda suv eng ko'paygan vaqtga to'g'ri keladi. To'g'onning holatiga qarab yiliga u ikki marta: birinchi marta iyun, ikkinchi marta avgust oylarida tiklanadi. Otliq va aravalar bilan Oqdaryoga o'tadigan suv yo'lini to'sib, u yerga shox-shabba va xashak bosilar, ularning ustiga esa tosh, chim hamda qum tashlanardi. Bundan tashqari, bir chaqirim, toshqin kuchaygan vaqtlarda esa, bir yarim chaqirim keladigan masofadan chim chopib keltirilgan" [10].

Z.Jijemskiy ishlab chiqqan loyiha bo'yicha, 3 chaqirim 120 sarjin (3,5 km ga yaqin) uzunlikdagi Cho'ponota to'g'oni 2,5 chaqirim (2,6 km)ga keltirilgan. To'g'onning qalinligi ostida 1-2 sarjin (2,13- 4,26 m)dan 4,5 sarjingga (9,6 m)ga, yuqorisida esa 1 arshin (0,71 m)dan 3 sarjingga (6,4 m)ga yetkazilgan. Balandligi o'rtacha hisob bilan 0,6 sarjin (1,28 m)ga teng bo'lgan [11]. Shunday qilib, loyihada inshoot uzunligini qisqartirish evaziga uni mustahkamroq qilib qayta qurish ko'zda tutgan edi. Bu ishni amalga oshirish uchun 9420 rubl 86 tiyin va 23548 ishchi kuni yoki uni pulga chaqqanda 9419 rubl 20 tiyin, jami 18840 rubl 06 tiyin sarf bo'lgan. Ushbu xarajatlarning 9420 rubl 86 tiyini Ziyovuddin bekligi to'lab, hasharchilarni Zarafshon okrugi berishi kerak bo'lgan [12].

XX asrning boshlarida ham Rossiya imperiyasining Turkistondagi ma'murlari tomonidan Zarafshon vohasi suv ta'minotini yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, rus muhandis - irrigatorlari tomonidan dehqonchilik uchun eng muhim va vohaning sug'orish tarmoqlari bosh olgan Oqdaryo-Qoradaryo suv ayirg'ich inshooti va Ravotxo'ja to'g'onini muhandislik asosida qayta qurishga alohida e'tibor qaratilgan. Bungacha Samarqandi yaqinidagi Cho'ponotada Zarafshon daryosi ustiga qurilgan Oqdaryo-Qoradaryo suv ayirg'ich inshooti shox-shabba, tosh va chimlardan barpo qilingan mahalliy tipdagi suv inshooti bo'lib, u har yili bahor va yoz oylaridagi sug'orish mavsumida qayta tiklangan yoki ta'mir qilingan. Shubhasiz Oqdaryo-Qoradaryo sug'orish tizimlarini suv bilan ta'minlashda muhim rol o'ynagan bu inshootni tiklash uchun hasharchilardan tashqari qurilish materiallari sotib olish, chim topish va tosh to'plash uchun katta mablag' sarflangan. Bu inshootga sarflanadigan xarajatlarni tejash va Samarqanddan quyida ayniqsa Miyonqol va Kattaqo'rg'on tumanlarini suv ta'minoti, shuningdek Buxoro bilan bo'lgan suv taqsimotini tartibga solish uchun mavsumiy xarakterga ega bo'lgan mahalliy dagi Oqdaryo-Qoradaryo to'g'oni o'rniga muhandislik hisob-kitoblarga asoslangan mustahkam suv ayirg'ich barpo etish kerak edi.

Zarafshon vohasining suv xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etgan bu masalani yechish uchun 1902-yilda Samarqand viloyat irrigatsiya boshqarmasi muhandisi I.Petrovskiy temir va beton qorishmasidan quriladigan muhandislik hisob-kitoblarga asoslangan Oqdaryo-Qoradaryo suv ayirg'ich to'g'oni uchun o'zini dastlabki loyihasi va unga ketadigan xarajatlar ro'yxatini tuzib chiqqan [13]. Uning loyihasi bo'yicha bu inshootni qurish uchun umumiy hisobda hammasi bo'lib 87 ming rubl mablag' kerak bo'lgan [14]. I.Petrovskiyning Oqdaryo-Qoradaryo suv ayirg'ich bo'yicha muhandislik va xarajatlar loyihasi Turkiston ma'muriyatiga tavsiya qilingan. Ammo, bunday inshootni davlat mablag'lari hisobidan qurish ko'zda tutilmaganligi sababli I.Petrovskiyning taklifi amalga oshmay qolib ketgan.

Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Zarafshon daryosida sodir bo'lgan kuchli suv toshqini 1890 yilda qurilgan va qo'l ko'tarmalar orqali boshqariladigan Oqdaryo-Qoradaryo suv ayirg'ich inshootini buzib yuborgan [15]. Natijada to'g'onni qayta tiklash yoki o'rniga

muhandislik hisob-kitoblarga asoslangan mustahkam to'g'on qurish loyihasiga ehtiyoj tug'iladi. 1909 yilda bu inshoot loyihasini ishlab chiqish muhandis K.S.Savitskiyga topshiriladi. U sekundiga 60 kub sarjin (600 metr kub) suv o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan suv ayirg'ich loyihasini ishlab chiqqan. K.S.Savitskiy tomonidan tuzilgan loyiha I.Petrovskiy loyihasidan ancha farq qilgan. Birinchi navbatda unga sarflanadigan mablag' miqdori kam bo'lib, ikkinchidan to'g'on qurishda temir-beton o'rniga mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish mo'ljallangan edi [16].

Bunday inshootni qurish belgilangan Zarafshon daryosining chap qirg'og'i juda bo'sh bo'lganligi hamda suvning intensiv yuvilishini hisobga olib, qirg'oqni mustahkamlashda ishlatiladigan toshlarni faqat Cho'ponota tepaligidan olish va oqimni maxsus tayyorlangan sepoyalar yordamida berkitish ko'zda tutilgan. K.S.Savitskiy loyihasini o'rganish va uni tasdiqlash maqsadida Turkiston o'lka boshqarmasi tomonidan maxsus komissiya tuzilgan. Komissiya tarkibiga D.S.Pisarev boshliq, S.S.Sakovich, K.A.Semenov, G.S.Sergeyev, hamda loyiha muallifi K.S.Savitskiy kiritilgan [17]. Komissiya loyihani har tomonlama o'rganib chiqib, K.S.Savitskiy ishlab chiqqan loyihaga ba'zi qo'shimchalar kiritadi va qurilishga ketadigan xarajatlar summasini 22515 rubl 39 tiyin etib belgilaydi. 1912-yilda Samarqand viloyati harbiy gubernatori tomonidan loyiha tasdiqlanadi va o'sha yilning o'zida Oqdaryo-Qoradaryo suv ayirg'ich inshootini qurish boshlab yuboriladi [18]. To'g'on qurilishi davomida 1915-yilda loyihaga qo'shimcha ravishda xarajatlar uchun 36364 rubl [19], 1916 yilda esa 25313 rubl 50 tiyin berilgan [20].

Yangi ishlab chiqilgan loyiha asosida barpo etilgan to'g'onda suv ayirg'ich darvoza yog'ochdan tayyorlangan bo'lib, bo'yi 6 arshin, 1,5 verst, qalinligi qolib bo'ylab surilgan. Darvozani ostki qismi shag'al toshdan tayyorlangan nishob bo'ylab surilgan. Suv yo'li to'rt qatordan iborat zinapoya shaklida beton qorishmasidan ishlab chiqilgan katakchalar, ularni har birini balandligi 0,60 sarjindan iborat bo'lib, to'siq barpo etilgan [21].

Zarafshon vohasining eng muhim suv ayirg'ichlaridan biri bo'lgan muhandislik tipidagi bu inshootning qurilishi shubhasiz Oqdaryo-Qoradaryolar bo'ylab Zarafshon suvini taqsimlashni tartibga solishni ancha muncha yengillashtirgan. Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi ma'murlari tomonidan Zarafshon vohasida suv ayirg'ich to'g'onlarini qayta qurish va ta'mirlash borasida amalga oshirilgan ishlar qisqa muddatli mavsumiy xarakterga ega bo'lib, dehqonchilik xususan, muhim daromad manbai bo'lgan paxtachilikni rivojlantirish uchun dastlabki choralardan biri bo'lgan xolos.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha). – Toshkent, Fan. – B. 206.
2. O'zMA, I-1-jamg'arma, 14-yig'ma jild, 324-ish, 20-varaq.
3. Ирригационная система реки Зерафшан, «Туркестанский сборник». Том 152. – С. 143.
4. Ирригационная система реки Зерафшан, «Туркестанский сборник». Том 152. – С. 43.
5. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha). – Toshkent, Fan. – B. 207.
6. O'zMA, I-1-jamg'arma, 14-yig'ma jild, 324-ish, 55-varaq.
7. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha). – Toshkent, Fan. – B. 208.
8. O'zMA, I-1-jamg'arma, 29-yig'ma jild, 746-ish, 24-varaq.

9. O'zMA, I-1-jamg'arma, 14-yig'ma jild, 324-ish, 21-22-varaqlar.
10. O'zMA, I-1-jamg'arma, 14-yig'ma jild, 324-ish, 20-varaq.
11. O'zMA, I-1-jamg'arma, 14-yig'ma jild, 324-ish, 48-varaq.
12. O'zMA, I-1-jamg'arma, 14-yig'ma jild, 324-ish, 33-34-varaqlar.
13. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 4914-ish, 6-varaq orqa tomoni.
14. Пален К.К. отчет по ривизии Туркестанского края. Орошение в Туркестане. – Санкт-Петербург, 1910. – С. 194.
15. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 4876-ish, 8-varaq.
16. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 4876-ish, 11-varaq.
17. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 1914-ish, 10-varaq.
18. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 4914-ish, 15-varaq.
19. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 4975-ish, 36-varaq.
20. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 4675-ish, 4-varaq.
21. O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 4914-ish, 6-varaq.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).